YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA BUYUK AJDODLARIMIZ BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Yusupova Umidaxon Qaxxarovna
Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumani 1-son kasb-hunar maktabi
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Bugungi yosh avlod bundan to‘g‘ri va xolis baho chiqarishi lozim. Kasb-hunar maktabi yoshidagi bolalarga buyuk ajdodlarimiz, qaxramonlar, buyuk sarkardalar haqida turli rivoyatlar, tarixiy hikoyalarni bilishlari lozim.

Kalit so‘zlar: Intellektual salohiyat, vatanparvar, harbiy-vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘usi.

Annotatsiya: Сегодняшнее молодое поколение должно дать правильную и беспристрастную оценку этому. Дети профессионального школьного возраста должны знать различные легенды и исторические сказания о наших великих предках, героях и великих полководцах.

Ключевые слова: Интеллектуалный потенсиал, патриотизм, военно-патриотизм, чувство патриотизма

Annotation: Today's young generation should make a correct and impartial assessment of this. Vocational school-age children should know various legends and historical stories about our great ancestors, heroes, and great generals.

Keywords: Intellectual potential, patriotism, military patriotism, a sense of patriotism

Istiqlol yillarida mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz va sarkardalarimizning aziz nomlarini qayta tiklash, ular merosni asrab-aylash va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bu esa xalqimizning o‘lmas qahramonlariga, buyuk sarkardalarmizga bo‘lgan yuksak hurmat-e’tiborning yorqin timsolidir. Bunda buyuk sarkardalarmiz merosini tiklash, ularni asrab-avaylash va yoshlarga yetkazish milliy qadariyatlarimiz asosini tashkil etmoqda. Millatimiz nomini ulug‘lagan buyuk sarkardalarimiz haqida so‘z borar ekan, buyuk davlat arbobi, yetuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi nomini faxr bilan e’tirof etamiz. Zero Birinchi Prezidentimiz: “Men yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: “Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g‘ururlanishimiz kerak”, deb aytgan edi. Ayni vaqtda “Faqat g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas, kelinglar, o‘zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o‘z hissamizni qo‘shaylik!”, degan g‘oyatda purma’no so‘zlari barcha ilm ahllari uchun ayniqsa, yoshlarimiz uchun asosiy dasturulamal bo‘lmog‘i davr talabidir. Yoshlarda Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi tasavvurlarini shakllantirish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biridir.Chunki tarixsiz, tarixiy shaxslarsiz kelajakka intilib bo‘lmaydi. Zero mo‘g‘ul imperiyasining asoschisi Chingizxon ta’biri bilan aytganda bu olamda Jaloliddinga teng keladigan sarkarda yo‘q. Go‘yo u quruqlikda Sher, suvda esa Nahang kabi kurashadi degandi. Aynan biz bugungi kun yosh bolalarmizga Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi haqida ko‘proq ma’lumot bersak nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasiga yuksak e’tibor qaratilishi barchamizning yutug‘imiz. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar aynan o‘sha sa’y-harakatlar samarasi ekanligi ayon. Uzoqni ko‘zlagan holda qabul qilingan kadrlar tayyorlash, maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga oid davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimiz uchun turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’sis etilgan davlat mukofotlari, bunyod etilgan ta’lim maskanlari, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar olib

borilmoqda. Bularning hammasi barkamol avlodni, ertangi kunimizning munosib davomchilarini, yurt kelajagi jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi.

Ma'lumki, vatanparvarlik dunyodagi eng oliy tuyg'ulardan biridir. Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o'zining hayotini bag'ishlaydi, o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Darhaqiqat, bularniig barchasi vatanparvarlik tuyg'usida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: "Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi boshqa xalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi". Bugungi kunda jamiyatimizda xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani, davlatimizniig iqtisodiy qudrati ortayotgani vatanparvarlik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23–fevraldagi №140 sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi qarorining qabul qilinishi MTT lari tarbiyalanuvchilarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan.

Biz ana shunday vatanparvar, komil insonlarni tayyorlashga mas'ulmiz. Bugun mamlakatimizda "sog'lom avlod", "barkamol avlod" va "komil inson" tarbiyasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar dasturida ham mustaqillikni mustahkamlash, Vatan himoyasi vazifalari o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik sharofati bilan odamlar tushunchasi, tafakkuri tubdan o'zgardi. Yurt, Vatan, Millat tushunchalari tobora ulkan mazmun kasb eta boshladi. Shu boisdan ham insonlar ongida, qalbida Vatanparvarlik his- tuyg'ularini uyg'otish bugungi kunning muhim muammosi bo'lib turibdi. Eng avvalo bunday his-tuyg'ularni beshikdan boshlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh Vatan nima? Nima uchun ona-Vatan deyiladi? Bizningcha kurraiy zaminimiz butun yer yuzida yashayotgan yetti millyardan ziyod xalqlar uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan xudud ona-Vatandir. Vatan atamasi aslida arabcha atama bo'lib, ona yurt ma'anosini bildiradi.

Vatan tushunchasi keng ma'noda va tor ma'noda ham qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal azaldan istiqomad qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla qishloq nazarda tutilsa bu tor ma'nodagi tushunchadir.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, og'ir sharoitida muayyan qabila yashagan joy o'sha qabilaning Vatani sanalgan. Jondosh va tildosh qabilalarning uzviy itfoqidan elat paydo bo'lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Masalan, o'zbek xalqi dostonlarida Chambil eli iborasi ko'p uchraydi.

Bu o'rinda davlat va Vatan ayni bir ma'noni anglatadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi deganda Vatanimizni tushunamiz.

Vatanparvarlik tuyg'usi-shu vatanning egasi bo'lishi xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak.

O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak.

Buyuk allomalar hayoti, ijodi va qoldirgan bebaho madaniy meros va avlodlar uchun ibrat va namunadir, ularning tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limotlari katta yoshdagi bolalarni Ona Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, o'zligini anglatishda benazir qadryatdir.

Mashhur alloma Abdullo Avloniy o'zinng «Turkiy guliston yohud axloq» asarining

«Vatanni suymak» bobida shunday fikrini bildiradi. «Vatan har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahri va mamlakatini shu kishining vatani deyilur». Har kim tug‘ilib o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar, hatto bu vatan his-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan-yurtidan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-farog‘atda yashamas, mayshati taxt bo‘lib, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanning muhabbati turar. Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonni qumlik issiq cho‘llarni, eskimosliklar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzdek yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymaslar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab xijrat qilurlar edi.

Har bir odam Vatanidan qanchalik uzoq ketmasin, umri so‘ngida u ona go‘shasiga qaytmoqni istaydi.

Buyuk hadisshunos olim Imom Buxoriyning bu boradagi harakatlari O‘zbekistonning har bir yosh fuqorasi uchun g‘oya ibratlidir. Alloma qariyb, musulmon olamida ilmda yagona bo‘ldi, xalq e’tirofi va e’zoziga erishib umri so‘ngida ona yurti Buxoraga qaytib keladi, chunki Vatan mehri iymon qadar aziz edi.

Vatanparvarlik chidamli, hushyor bo‘lmog‘i lozim. Chinakkam farzand Vatan, ona-yurt, xalqning or-nomusining har narsadan yuqori qo‘ysin, kerak bo‘lsa, aziz jonlarini qurbon qilishga ham tayyor tursin.

Munavvarqorining fikricha “Vatanni sevish, uning gullab-yashnashi uchun mehnat qilish va bilimlarini egallash shart. Bilimsizlik nodonlik, yalqovlik demakdir” deydi.

Munavvarqori bolalar qalbiga Vatan tuyg‘usini singdirib, ularni fuqoralik burchini samimiy e’tiqod bilan ado etuvchilar qilib kamol toptirishni talab etadi, Vatan o‘z farzandlaridan sharafli burchlarni bajarishni talab etayotganini ta’kidlaydi.

Munavvarqorining fikricha “Yosh avlodni tarbiyalash millatni uyg‘otish Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin” deydi.

Vatanparvarlik fazilatlarining sifatlari:

- Kasb-hunar maktab yoshidagi bolalarda Vatan tuyg‘usini shakllantirish;
- Kasb-hunar maktab yoshidagi bolalarida Vatanga sodiqlik, mardlik ruhini shakllantirish;
- Kasb-hunar maktab yoshidagi bolalar qalbida, ongida vatanning xalqini, ma’naviy qadriyatlarini e’tirof etish, faxrlanish hissini uyg‘otish;
- Vatanning tabiatini sevishga, ardoqlshga o‘rgatish;
- Vatanimizda boshqa millat xalqlarning ham vatani ekanligi ular bilan iliq axil bo‘lib yashashga o‘rgatish;
- Mustaqil O‘zbekistonimizning tarixi, madaniyati, an’analariga hurmat hissini shakllantirish;
- O‘tmish allomalarimiz bilan faxrlanish hissini uyg‘otish;
- O‘t

mishdagi buyuk sarkarda bobolarimiz bilan faxrlanish hissini uyg‘otish kabilar.

Xulosa qilganda vatanparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish uchun kasb-hunar maktabi yoshdagi bolalar bilan alohida tarbiyaviy tadbirlarni tatbiq qilish, individual yondashishni amalga oshirish zarur bo‘lib, ularga yordam berish uchun samarali psixologik ta’sir o‘tkazuvchi, hissiyot dinamikasini maqsadga muvofiq yo‘naltiruvchi, milliy qiyofa xususiyatlarini o‘zlashtirishga undovchi kechalar, uchrashuvlar tashkil qilish, ishtirokchilarni faollashtiruvchi ijtimoiy-psixologik vaziyatlar yuzaga keltirish ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiradi.

https://wordlyknowledge.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2-jild. -T.: «O‘zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: «o‘zbekiston», 1996.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: o‘qituvchi, 1992.
4. Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. -T.: Fan, 1994.-135b.
5. Qurbonov Sh., E. Seytxalilov va boshqalar. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. Toshkent, “Akadememiya” 2002
6. http://library.ziyonet.uz/uz
7. http://www.e-tarix.uz/shaxslar/446-amir-temur.html
8. http://www.e-tarix.uz/shaxslar/hukumdorlar/451-hukmdorlar.html

WORDLY KNOWLEDGE